

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

*M.M.O‘rolov,*

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,*

*Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada jismoniy tarbiya va sportning zamonaviy muammolari tahlil qilinib konstitutsiyaviy asoslari ko‘rsatilgan. Shuningdek, sohani yanada takomillashtirish va rivojlantirib borish, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar asosida chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** konstitutsiya, norma, davlat, jismoniy tarbiya, sport, takomillashtirish, rivojlantirish, tizim, dastur, tadqiqot, ilmiy salohiyat, salomatlik yo‘laklari, velosiped yo‘llari.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha islohotlarning mazmuni inson omilini rivojlantirishga qaratilmoqda. Chunki inson barcha boyliklarni asrovchi, yaratuvchi hamda takomillashtiruvchi hisoblanadi. Shuning uchun ham insonni har tomonlama rivojlantirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, shart-sharoitlar yaratish ko‘zlangan maqsadga erishishning garovi bo‘lib qolmoqda. E’tiborli tomoni shundan iboratki, davlatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama rivojlantirish uchun ko‘plab normativ xujjatlar, davlat dasturlari, farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5924-son farmoni, 2020 yil 30 oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 6099-sonli

farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 noyabrdagi "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 735-sonli bir qator qarorlarida belgilab, aynan jismoniy tarbiya va sportni xalqimiz orasida ommalashtirib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026 yilda 33 foizga chiqarish maqsad qilib qo'yilgan.

Shu boisdan, Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlatning strategik maqsadlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi konstitutsiyaviy qonun loyihasining 48-moddasi 4-qismida:

"Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart sharoitlar yaratadi" deb belgilanishi, sohani rivojlantirish uchun konseptual norma bo'lib xizmat qiladi. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida bunday norma mavjud emas edi.

So'ngi yillarda Jismoniy tarbiya va sport sohasida 6 mln nafar yoshlar ishtirokida mahalla, tuman, viloyat va respublika bosqichlaridan iborat ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish yuzasidan topshiriq berildi.

Buning uchun har bir viloyatga 100 mln so'mgacha, g'olib sovrindorlarni taqdirlash uchun 1 mlrd so'mgacha mablag' ajratildi. Qolaversa, mahallalarda sport infratuzilmasini yaxshilash, loyihalar qiymatini maqbullashtirib, maydonchalar tashkil etilib foydalanishga topshirildi. Hozirda 118 ta sport majmuasi, mahallalarda 7 mingta sport maydonchasi foydalanishga topshirildi. Bugungi kunda 3500 ta mini-fudbol, 6 ming ta basketbol, voleybol, 663 ta badminton maydonlari, mingdan ortiq fitness zallari mavjud. Har bir tuman va shahar markazlarida "Salomatlik yo'lakchalari" va velosiped yo'llari tashkil etildi. Bugungi kunga kelib zamonaviy talablarga javob beruvchi kadrlarni tayyorlash borasidagi barcha huquqiy qoidalar va talablar qabul qilingan bo'lsada, amaliyot bu sohada bir qancha muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Joylarda yoshlar orasidan iqqidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) ning samarali va shaffof tizimi mavjud emasligini terma jamoalar

tarkibini sifatli to'ldirish uchun sport zahirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlashni ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, ayrim joylarda sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish uchun faqat shahar markazlaridagina sharoitlar yaratilgan.

Ayniqsa, Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport sohasi kamayib borishi, ilmiy-tadqiqot ishlarida professor-o'qituvchilar tomonidan bunday muammolarni bartaraf etib borish bo'yicha tizimli dasturlarni ishlab chiqib, ularning izchilligini ta'minlash zaruriyat qilib qo'yimoqda.

- sport-tarbiya ishlari tizimini sifat jihatidan yangilash, talabalarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish;

- maktabgacha ta'lim muassasasi, umumta'lim maktablari va mahallalarda tizimli ravishda ommaviy sportni targ'ib etish;

- sport inshootlaridan maktab o'quvchilari, mahallalardagi aholining keng foydalanish mexanizmini shakllantirish;

- sport federatsiyalari, ixtisoslashtirilgan olimpia zaxiralari va sport turlari bo'yicha oliy sport mahorati maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab internatlari bilan iqtidorli sportchi yoshlarni saralash, ularning faoliyatini targ'ib etish, rag'batlantirish va oliy ta'limga yo'naltirish bo'yicha hamkorlikni amalga oshirish;

- zamonaviy sport laboratoriyalarini tashkil etish;

- milliy sport turlari bo'yicha ilmiy maktablar yaratish va ularning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish;

- sport sohasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda xorijiy metodikalardan keng foydalanish;

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekistonda sog'lom avlod buyuk kelajak poydevorini quradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi 394-sonli Qonuni – Lex.uz.
4. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
5. <http://press-service.uz/uz> (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti).
6. <http://book.uz/> (Elektron adabiyotlar kutubxonasi).
7. <http://www.xs.uz> («Xalq so‘zi» gazetasi).